PSIXOLOGIK-MOTIVATSION MATNLAR TARJIMASIDA KASKADLI NOSOZLIK: TUSHUNCHA, LISONIY MEZONLAR VA DIAGNOSTIKA

Jumayeva Dilbar Kuvondikovna

Navoiy davlat universiteti, Tillar fakulteti, "Ingliz tili amaliy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: jumayeva1983@gmail.com; ORCID: 0000-0002-4194-3502

UO'K 811.111'255.2+811.512.133'255.2

Annotatsiya

Maqolada psixologik-motivatsion (self-help) matnlar tarjimasida uchraydigan tizimli yo'qotishlar zanjirini tavsiflash uchun taklif etilgan "kaskadli nosozlik" tushunchasi asoslanadi. Tarjima sifatini baholashning an'anaviy modellari har bir xatoni alohida hodisa sifatida qayd etadi, vaholanki motivatsion matnda bitta konseptual yoki metaforik birlikning buzilishi matnning pragmatik ta'siriga zanjirsimon ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotning maqsadi tushunchaning ishchi ta'rifini, uni aniqlashning uch sathli lisoniy mezonlarini va diagnostika tartibini ishlab chiqish hamda ularni J.Klir, R.T.Kiyosaki va S.R.Kovi asarlarining o'zbekcha tarjimalari materialida sinab ko'rishdan iborat. Kontent-tahlil, qiyosiy-chog'ishtirma va kognitiv-konseptual tahlil usullari qo'llanildi; korpus 697 semantik blok, 134 asliyat–tarjima marker juftligi, 84 mualliflik termini, 45 konseptual metafora turi va 67 madaniy unsurni qamrab oladi. Har bir asar uchun kaskad profili tuzildi: J.Klir asari tarjimasida metaforik-konseptual, R.T.Kiyosaki asari tarjimasida pragmatik, S.R.Kovi asari tarjimasida pragmatik kaskadning madaniy ko'rinishi ustun ekani aniqlandi. Tahlil qilingan asarlar doirasida asarning diskursiv turi kaskad turini belgilashi, tarjima matni hajmining qisqarishi esa pragmatik kaskad darajasi bilan bog'liq ekani ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: psixologik-motivatsion matn, tarjima, kaskadli nosozlik, PASI modeli, pragmatik ta'sir, konseptual metafora, kognitiv tarjimashunoslik, lisoniy mezon.

Аннотация

В статье обосновывается понятие «каскадный сбой», предложенное для описания цепочки системных потерь при переводе психолого-мотивационных (self-help) текстов. Традиционные модели оценки качества перевода фиксируют каждую ошибку как отдельное явление, тогда как в мотивационном тексте нарушение одной концептуальной или метафорической единицы оказывает цепное воздействие на прагматический эффект текста. Цель исследования — разработать рабочее определение понятия, трёхуровневые языковые критерии его выявления и процедуру диагностики, а также проверить их на материале узбекских переводов книг Дж. Клира, Р.Т. Кийосаки и С.Р. Кови. Использованы методы контент-анализа, сопоставительного и когнитивно-концептуального анализа; корпус включает 697 семантических блоков, 134 пары маркеров оригинал–перевод, 84 авторских термина, 45 типов концептуальных метафор и 67 культурных элементов. Для каждого произведения составлен каскадный профиль: в переводе книги Дж. Клира преобладает метафорико-концептуальный каскад, у Р.Т. Кийосаки — прагматический, у С.Р. Кови — культурная разновидность прагматического каскада. В рамках проанализированных произведений показано, что дискурсивный тип текста определяет тип каскада, а сокращение объёма перевода связано со степенью прагматического каскада.

Ключевые слова: психолого-мотивационный текст, перевод, каскадный сбой, модель PASI, прагматическое воздействие, концептуальная метафора, когнитивное переводоведение, языковой критерий.

Abstract

The article substantiates the concept of "cascading failure", proposed to describe the chain of systemic losses that occurs in the translation of psychological-motivational (self-help) texts. Conventional translation quality assessment models record each error as a separate event, whereas in a motivational text the distortion of a single conceptual or metaphorical unit affects the pragmatic impact of the text in a chain-like manner. The aim of the study is to develop a working definition of the concept, three-level linguistic criteria for its identification and a diagnostic procedure, and to test them on the Uzbek translations of the books by J. Clear, R.T. Kiyosaki and S.R. Covey. Content analysis, comparative-contrastive and cognitive-conceptual analysis were applied; the corpus comprises 697 semantic blocks, 134 source–target marker pairs,

84 authorial terms, 45 types of conceptual metaphor and 67 cultural elements. A cascade profile was compiled for each work: the metaphorical-conceptual cascade prevails in the translation of J. Clear, the pragmatic cascade in R.T. Kiyosaki, and the cultural variety of the pragmatic cascade in S.R. Covey. Within the works analysed, the discourse type of a work was shown to determine the cascade type, and the reduction of the target text was found to be associated with the degree of the pragmatic cascade.

Keywords: psychological-motivational text, translation, cascading failure, PASI model, pragmatic impact, conceptual metaphor, cognitive translation studies, linguistic criterion.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda o'zbek kitob bozorida psixologik-motivatsion (ingl. self-help) adabiyot tarjimalari eng ko'p o'qiladigan nashrlar qatoridan joy oldi. Bu janrning yetakchi vazifasi axborot berish emas, o'quvchini o'z xulq-atvorini o'zgartirishga undashdir; shu bois bunday matn tarjimasining sifati leksik-grammatik to'g'rilik bilan emas, asliyatdagi pragmatik ta'sirning tarjima o'quvchisida qay darajada qayta yaratilgani bilan o'lchanadi. Tarjima sifatini baholashda keng qo'llaniladigan xatolar tahlili modellari [1; 2; 3] har bir xatoni mustaqil hodisa sifatida qayd etadi va texnik yoki ilmiy matn uchun bu yetarli. Motivatsion matnda esa konseptual tizim, metaforik obrazlar, ritorik figuralar va muallif ohangi yaxlit mexanizm sifatida ishlaydi: bitta halqaning buzilishi keyingi halqalarga o'tadi. Bu jarayonni nomlash va o'lchash uchun tarjimashunoslikda maxsus tushuncha ishlab chiqilmagan edi.

Tarjimada pragmatik ta'sirni saqlash muammosi Y.Naydaning dinamik ekvivalentlik [4], P.Nyumarkning kommunikativ tarjima [5], H.Vermeerning skopos [6] va M.Beykerning pragmatik ekvivalentlik [7] konsepsiyalarida nazariy jihatdan asoslangan; tarjima strategiyalarining tasnifi A.Chesterman [8] va L.Venuti [9] ishlarida berilgan. Kognitiv tarjimashunoslik tarjimon qarorlarini konseptual tuzilmalar bilan bog'lab tushuntiradi [10; 11]; konseptual metafora nazariyasi [12] va mental fazolar konsepsiyasi [13] matn ma'nosining zanjirsimon qurilishini ko'rsatib beradi. O'zbek tarjimashunosligida ekvivalentlik va tarjima pragmatikasi masalalari G'.Salomov [14], Sh.Safarov [15] va Z.Q.Teshaboyeva [16; 17] tadqiqotlarida o'rganilgan, biroq bu ishlar badiiy matn, qiyosiy frazeologiya va umumiy nazariya

doirasida qolgan. Psixologik-motivatsion matn tarjimasidagi yo'qotishlarning o'zaro bog'liqligi hozirga qadar alohida tadqiqot obyekti bo'lmagan; muallifning avvalgi ishida bu janrdagi emotsional ohang va persuaziv vositalarni yetkazish strategiyalari ko'rib chiqilgan bo'lsa-da [18], xatolarning bir-biriga ta'siri masalasi ochiq qolgan edi.

Ushbu maqolaning maqsadi tarjimadagi zanjirsimon yo'qotishlarni tavsiflovchi "kaskadli nosozlik" tushunchasini asoslash va uni empirik materialda sinab ko'rishdan iborat. Maqsadga erishish uchun uchta vazifa belgilandi: tushunchaning ishchi ta'rifini va uni aniqlashning lisoniy mezonlarini ishlab chiqish; kaskadli nosozlikni tashxislash tartibini va uning turlarini belgilash; taklif etilgan mezonlarni J.Klir, R.T.Kiyosaki va S.R.Kovi asarlarining o'zbekcha tarjimalariga tatbiq etib, kaskad profillarini qiyoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida janrning uch kichik turini ifodalovchi asarlar va ularning o'zbekcha tarjimalari olindi: J.Klirning "Atomic Habits" (2018) [19] asari S.Qosimova tarjimasida ("Atom odatlar", 2021) [20]; R.T.Kiyosakining "Rich Dad Poor Dad" asari (2011-yilgi nashr) [21] M.Mirfayziyev tarjimasida ("Boy ota, kambag'al ota", 2019) [22]; S.R.Kovining "The 7 Habits of Highly Effective People" (1989) [23] asari O.G'ulomova tarjimasida ("Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi", 2020) [24]. Uch asar kognitiv-bixevioristik, moliyaviy-didaktik va ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarni, o'ttiz yillik davrni hamda uch tarjimon va uch nashriyot amaliyotini qamrab oladi. Asliyatlarning umumiy hajmi taxminan 235 ming so'z; tarjimalar asliyatga nisbatan mos ravishda 19,5, 44,7 va 23,3 foizga qisqargan.

Tahlil birligi sifatida semantik blok qabul qilindi: u yagona yetakchi ritorik vazifani bajaruvchi, odatda 3–5 xatboshidan iborat mazmuniy-kompozitsion makrobirlikdir. Uchala asarning to'liq matni uzluksiz segmentatsiya qilinib, 697 blok ajratildi (J.Klir — 209, R.T.Kiyosaki — 186, S.R.Kovi — 302; bitta blokning o'rtacha hajmi 340 so'z atrofida). Har bir blok PASI modelining to'rt elementidan biriga kodlandi: P — muammo (Problem), A — keskinlashtirish (Agitation), S — yechim (Solution), I — amaliyot (Implementation). Model D.Kennedining PAS formulasiga to'rtinchi, protsedural ko'rsatma elementini qo'shish orqali qurilgan; ikki vazifani birga bajaruvchi bloklar yetakchi funksiya qoidasiga ko'ra bir marta

hisoblandi, asliyat va tarjima parallel kodlandi, har bir qaror kodlash protokolida qayd etildi. Quyi sathdagi birliklar sifatida 134 asliyat–tarjima lingvistik marker juftligi, 84 mualliflik termini, 45 konseptual metafora turi, 67 madaniy unsur va 2 612 ritorik vosita ro'yxatga olindi; ularning har biri uchun tarjimadagi holat to'liq saqlanish, qisman saqlanish (yoki kompensatsiya) va yo'qolish shkalasida baholandi.

Kaskadli nosozlikni aniqlashda uch sathli mezon qo'llanildi (uning mazmuni natijalar bo'limida beriladi); nosozlik faqat uchala shart bir vaqtda bajarilganda qayd etildi. Aniqlangan nosozliklarning darajasi (kuchsiz, past-o'rtacha, o'rtacha, o'rtacha-yuqori) zararlangan sathlar soni, jarayonga tortilgan PASI elementlari va kontekstning kompensatsiya imkoniga qarab sifatiy baholandi. Barcha miqdoriy ko'rsatkichlar korpusni tavsiflash uchun keltiriladi; namuna hajmi (uchta asar) statistik umumlashtirishga imkon bermaydi, shu sababli xulosalar birinchi navbatda tahlil qilingan asarlar doirasida amal qiladi.

NATIJALAR

Tushuncha va lisoniy mezonlar

"Kaskadli nosozlik" (cascading failure) atamasi muhandislik tizimlari nazariyasida bitta uzelning ishdan chiqishi qo'shni uzellarga ortiqcha yuk tushirib, buzilishning butun tarmoq bo'ylab tarqalishini bildiradi [25]. Tarjimaga tatbiq etilganda u erkin metafora emas, ishchi tushuncha sifatida qo'llanadi. Tarjimadagi kaskadli nosozlik deganda leksik-semantik sathda yuz bergan birlamchi nosozlikning (metaforaning tushirib qoldirilishi, mualliflik terminining noto'g'ri o'girilishi, ohang markerining yo'qolishi) pragmatik sathga (muallifning kommunikativ niyati va ohangining buzilishi), so'ngra funksional sathga (matn skoposi bo'lgan motivatsion zanjirning uzilishi) o'tishi tushuniladi. Uch sath va ularni aniqlashda tayaniladigan lisoniy ko'rsatkichlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Kaskadli nosozlikning uch sathi va lisoniy ko'rsatkichlari

Sath	Nosozlik turi	Mazmuni	Lisoniy ko'rsatkich
1	Leksik-semantik	Bitta so'z, termin, metafora	Asliyat–tarjima juftligida

Sath	Nosozlik turi	Mazmuni	Lisoniy ko'rsatkich
		yoki ohang markeri noto'g'ri o'girilgan yoki tushirib qoldirilgan	birlikning yo'qolishi yoki ma'no siljishi (terminlar, metaforalar, madaniy unsurlar ro'yxati bo'yicha)
2	Pragmatik	Muallifning kommunikativ niyati va ohangi buzilgan	Tegishli PASI elementi markerlarining (buyruq mayli, deontik va irreal modallik, ritorik savol, giperbola, peyorativ leksika) saqlanish darajasi
3	Funksional	Matnning maqsadli ta'siri zarar ko'rgan, motivatsion zanjir uzilgan	Keyingi PASI elementlarining tayanch birlikdan mahrum bo'lishi; asarning bosh konseptual o'qi yoki I (amaliyot) bosqichiga o'tishning zaiflashuvi

Manba: muallif ishlanmasi.

Hodisa uchta shart bir vaqtda bajarilgandagina qayd etiladi: birlamchi leksik-semantik nosozlik matnda aniqlangan; uning pragmatik sathdagi oqibati tegishli PASI elementi markerlari orqali tasdiqlangan; funksional sathdagi zarar ko'rsatilgan. Faqat birinchi shart bajarilgan holat alohida tarjima xatosi sanaladi, kaskadli nosozlik emas. Bunga qo'shimcha ravishda tizimli va individual nosozlikni farqlash mezoni kiritildi: bir xil turdagi nosozlik uchta mustaqil tarjimon ishida takrorlansa, u tarjimonning shaxsiy malakasi emas, janr matnini tarjima qilishning kognitiv tabiati bilan bog'liq tizimli hodisa deb baholanadi; faqat bitta tarjimada uchragan holat individual deb qaraladi va umumlashtirilmaydi. Tahlil obyekti tarjimon emas, tarjima matnidagi qonuniyatlar bo'lgani uchun tarjimonlar malakasiga baho berilmaydi.

Diagnostika tartibi va kaskad turlari

Diagnostika uch bosqichda olib boriladi. Avval tarjima matni PASI segmentlari bo'yicha asliyat bilan qiyoslanadi va har bir segmentning funksional holati aniqlanadi (qayerda muammo bor?). So'ngra muammoli segmentdagi birlik konseptual dekonstruksiya, qiyosiy rekonstruksiya va strategik baholash bosqichlaridan o'tkaziladi (nima buzilgan va qanday tuzatish mumkin?). Nihoyat, har bir aniqlangan nosozlik uchun uchta savol qo'yiladi: u qaysi sathda boshlangan, keyingi sathlarda qanday yangi muammolarni keltirib chiqargan va matnning umumiy pragmatik ta'siriga qanday ta'sir ko'rsatgan (bitta xato qanday tarqaldi?).

Boshlanish nuqtasi va tarqalish mexanizmiga ko'ra uch tur ajratildi. Konseptual kaskad asarning g'oyaviy o'qini tashkil etuvchi markaziy tushunchaning buzilishidan boshlanadi: J.Fokonyening mental fazolar konsepsiyasiga ko'ra bunday tushuncha o'quvchi ongida tayanch andoza vazifasini bajaradi va uning buzilishi shu andoza ustiga qurilgan barcha tuzilmalarga o'tadi [13]; kaskad asosan S elementida boshlanib, I elementini konseptual asosdan mahrum qiladi. Metaforik kaskad muallifning obrazli tizimidagi tayanch metafora noto'g'ri o'girilganda yoki tushirib qoldirilganda yuzaga keladi, chunki konseptual metafora nazariyasiga ko'ra metafora bezak emas, tafakkur mexanizmidir [12]; u A va S elementlarida boshlanadi. Pragmatik kaskad muallif ovozi, ohangi yoki kommunikativ niyatining yo'qolishi natijasida matn ta'sir quvvatining bosqichma-bosqich susayishidir; skopos nazariyasi nuqtai nazaridan bu tarjimaning kommunikativ maqsadga erishish darajasining pasayishi [6]; kaskad A va I elementlarida boshlanadi. Madaniy realiya va lakunalarning izohsiz tushirib qoldirilishi keltirib chiqaradigan zanjir alohida tur emas, pragmatik kaskadning madaniy ko'rinishi sifatida qaraladi.

Uchta asar tarjimasining kaskad profillari

Mezonlarni korpusga tatbiq etish natijasida har bir asar uchun kaskad profili tuzildi (2-jadval). Profillar bir-biridan ustun kaskad turi bilan farq qiladi, umumiy saqlanish ko'rsatkichlari esa bir-biriga yaqin: uchala tarjimada birliklarning 69–74 foizi to'liq saqlangan.

2-jadval. Uchta asar tarjimasining kaskad profillari

Ko'rsatkich	J.Klir	R.T.Kiyosaki	S.R.Kovi

Ko'rsatkich	J.Klir	R.T.Kiyosaki	S.R.Kovi
Tarjima hajmining asliyatga nisbatan qisqarishi, %	19,5	44,7	23,3
Birliklarning to'liq / qisman saqlanishi / yo'qolishi, %	69 / 26 / 5	72 / 19 / 9	74 / 20 / 6
Konseptual kaskad: holatlar soni (darajasi)	1 (o'rtacha)	1 (o'rtacha)	3 (past-o'rtacha)
Metaforik kaskad: holatlar soni (darajasi)	2 (o'rtacha)	0 (kuzatilmadi)	1 (kuchsiz)
Pragmatik kaskad: holatlar soni (darajasi)	1 (past-o'rtacha)	3 (o'rtacha-yuqori)	4 (o'rtacha)
Ustun kaskad turi	metaforik-konseptual	pragmatik	pragmatik (madaniy ko'rinish)

Manba: muallif ishlanmasi.

Konseptual kaskad holatlari eng ko'p S.R.Kovi asari tarjimasida qayd etildi, biroq ularning darajasi past-o'rtacha. "Response-ability" so'z o'yini tarjimada qayta yaratilmagan; "Emotional Bank Account" termini [23, 188-b.] "Hissiyot banki" shaklida o'tkazilib, moliyaviy metaforaning "account" (hisob) komponenti tushib qolgan; "P/PC Balance" terminida "Production" komponentining "Ta'minot" deb berilishi semantik maydonni o'zgartirgan. Uchala holatda ham zanjir uchinchi sathga to'liq o'tmagan, chunki muallif konseptni boshqa vositalar (V.Franklning hikoyasi, proaktiv/reaktiv antitezasi, g'oz va oltin tuxum masali) orqali qayta tushuntiradi. Mezonning ajratuvchi kuchi shu yerda ko'rinadi: leksik sathdagi buzilishni kontekst qoplasa, kaskad darajasi pasayadi. Shu mezon bo'yicha "Think Win/Win" shiorining "Yutuq/Yutuq" tarzidagi kalkasi [23, 205–207-b.; 24, 198-b.] kaskad emas, konseptual shaffoflik

xavfi sifatida baholandi: kalka termin shaklini saqlaydi, ammo "ikkala tomon ham yutadi" ma'nosini o'z-o'zidan bermaydi; to'rtinchi ko'nikmaning batafsil izohi zanjirning rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Metaforik kaskad J.Klir asari tarjimasida ikki holatda kuzatildi. Kitobning tayanch metaforasi, ya'ni odatlarni o'z-o'zini rivojlantirishning murakkab foiziga ("compound interest") qiyoslash [19, 16-b.], tarjimada "murakkab foiz" kalkasi bilan berilgan [20, 16-b.]. Metafora shakli saqlangan, ammo bu moliyaviy atama o'zbek o'quvchisi uchun ingliz tilidagichalik tanish emas va izohsiz qolgan; muz bo'lagining erishi, bambukning o'sishi kabi keyingi obrazlar shu metaforaga tayanadi; tayanch halqaning zaiflashuvi esa S elementining butun obrazli zanjiriga o'tadi. Ikkinchi holat "atomic" terminining kognitiv xaritasi bilan bog'liq: asliyatda "kichiklik va kuch" paradigmasini faollashtiruvchi so'z tarjimada "ilmiy termin" paradigmasini faollashtirish xavfini tug'diradi. Ikkala holat ham o'rtacha daraja bilan baholandi, chunki muallifning batafsil tushuntirishlari zanjirning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. R.T.Kiyosaki asarida esa metaforik kaskad umuman kuzatilmadi: 12 konseptual metafora turining barchasi saqlangan, "kalamushlar poygasi" ("the Rat Race") [21, 35-b.] okkazionalizmi o'zbek tilida muvaffaqiyatli yaratilgan. Bu farq kaskad turlarining bir-biriga bog'liq emasligini ko'rsatadi: bir asarda pragmatik kaskad kuchli bo'lgani holda metaforik kaskad bo'lmasligi mumkin.

Pragmatik kaskad R.T.Kiyosaki asari tarjimasida eng yuqori (o'rtacha-yuqori) darajaga yetdi va uchta shartning barchasi bajarildi. Birinchi sathda tarjima matni asliyatga nisbatan 44,7 foizga qisqargan; asliyatdagi 296 ritorik savoldan tarjimada 39 tasi qolgan (86,8 foiz kamayish), AQSh soliq-huquq tizimiga oid lakunalar (Section 1031, 16th Amendment) izohsiz tushirib qoldirilgan. Ikkinchi sathda boy ota bilan Robert o'rtasidagi savol-javob shaklidagi sokratik uslub, ya'ni S elementini yetkazishning bosh vositasi zaiflashgan, muallifning provokatsion ohangi neytrallashgan. Uchinchi sathda 8- va 9-boblarning qisqartirilishi tufayli I elementi markerlarining saqlanishi boshqa elementlarga nisbatan past (12 markerdan 9 tasi, 75 foiz) bo'lib, o'quvchini harakatga o'tkazuvchi bosqich tayanchini yo'qotgan. Shu bilan birga, saqlangan parchalar sifatli tarjima qilingan: birliklarning 72 foizi to'liq saqlangan, yo'qolish esa 9 foizni tashkil etadi va bu uch asar ichida eng yuqori ko'rsatkichdir. Tarjimaning bunday ikki qutbli xarakteri kaskadning manbai alohida xatolar emas, matnni qisqartirish qarori ekanini ko'rsatadi.

S.R.Kovi asari tarjimasida pragmatik kaskad madaniy ko'rinishda namoyon bo'ldi. Asardagi 26 madaniy unsurdan beshtasi (19,2 foiz) tushirib qoldirilgan, bu uch asar ichida eng yuqori omissiya darajasidir; jumladan, zamonaviy insondagi ruhiy bo'shliqni tasvirlash orqali o'quvchida bezovtalik uyg'otish uchun keltirilgan E.Fromm iqtibosining yo'qolishi A elementini zaiflashtirgan, AQSh sport madaniyatiga oid lakunalar (beysbol, amerika futboli) P elementining emotsional kuchini kamaytirgan. Bunga ekspressiv leksikaning neytrallanishi (giperbola va peyorativ leksikaning yumshatilishi) hamda 25 idiomadan uchtasining yo'qolishi qo'shilgan. Tarjimonning anaforani bosh harflar yordamida kuchaytirishi ekspressivlik pasayishini qisman qoplagan, shu sababli kaskad darajasi o'rtacha deb baholandi.

Tizimli nosozlik mezoni bo'yicha uchala tarjimada bitta umumiy hodisa ajralib chiqdi: A (keskinlashtirish) elementi markerlari, ya'ni peyorativ leksika, giperbola va irreal modallik, tarjimada eng ko'p zaiflanadi. Asliyatlarda bu element eng kichik ulushga ega (J.Klirda 15,3, R.T.Kiyosakida 19,9, S.R.Kovida 15,9 foiz; uchala asar bo'yicha 16,8 foiz), biroq aynan u o'quvchida shoshilinchlik va xavf hissini shakllantiradi. Kichik hajmli elementning zaiflashuvi S va I elementlaridagi yechim va ko'rsatmalarning motivatsion kuchini pasaytiradi; hodisa uch mustaqil tarjimonda takrorlangani uchun u individual emas, tizimli nosozlik sifatida tasniflandi.

MUHOKAMA

Olingan profillar asarning diskursiv turi bilan kaskad turi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Ilmiy-preskriptiv matnda (J.Klir) xavf mualliflik terminlari va tayanch metaforalarning kognitiv yukida yotadi va metaforik-konseptual kaskad ustunlik qiladi; provokatsion-hikoyaviy matnda (R.T.Kiyosaki) ta'sir kuchi ohang va dialogik tuzilmaga bog'liq bo'lgani uchun pragmatik kaskad yetakchi; akademik-pedagogik matnda (S.R.Kovi) madaniy alluziya va iqtiboslar daliliy bazani tashkil etgani sababli pragmatik kaskadning madaniy ko'rinishi ko'proq uchraydi. Ushbu qonuniyat uchta asar doirasida kuzatildi; uni janr miqyosida umumlashtirish kengroq korpusda tekshirishni talab qiladi.

Ikkinchi kuzatuv tarjima matni hajmining qisqarishi bilan pragmatik kaskad darajasi o'rtasidagi munosabatga tegishli: 19,5 foiz qisqarishga past-o'rtacha, 23,3 foizga o'rtacha, 44,7 foizga o'rtacha-yuqori daraja to'g'ri keldi. Qisqarish, birinchi navbatda, ritorik-dialogik

parchalar va amaliy (I) segmentlar hisobiga yuz bergan, ya'ni tarjimonlar aynan pragmatik ta'sirni ko'taruvchi qismlarni ixchamlashtirgan. Namuna hajmi (uchta asar) bu munosabatni qonuniyat deb e'lon qilishga imkon bermaydi, biroq u tarjima amaliyoti uchun aniq ogohlantirish vazifasini o'taydi: motivatsion matnda hajmni qisqartirish qarori alohida-alohida xatolardan ko'ra kuchliroq kaskad manbai bo'lib chiqmoqda.

Taklif etilgan tushuncha mavjud xatolar tahlili va sifat baholash modellarini [1; 2; 3] inkor etmaydi, ularni ikki jihat bilan to'ldiradi. Birinchisi tizimlilikdir: xatolar alohida hodisalar emas, sabab-oqibat zanjiri sifatida modellashtiriladi. Ikkinchisi prognostik imkoniyat: bitta sathda aniqlangan nosozlikning keyingi sathlarda qanday zanjir hosil qilishini oldindan ko'rish mumkin bo'ladi. Mualliflik terminlarini tarjima qilishda kalkaning ustunligi (J.Klirda 66,7, R.T.Kiyosakida 37,5, S.R.Kovida 71,4 foiz) S.Halversonning "sukut bo'yicha tarjima" (default translation) konstrukti [10] orqali izohlanishi mumkin: kalka tarjimonning birlamchi, avtomatik qarori bo'lib, u terminning shaklini saqlaydi, ammo madaniy lakuna holatida ("compound interest", "Section 1031") zanjirning birinchi halqasini hosil qiladi. Bundan amaliy xulosa kelib chiqadi: lakuna sathidagi birliklar uchun konseptual eksplikatsiya, A elementi markerlari uchun ritorik rekonstruksiya, muallif ohangi uchun pragmatik modulyatsiya strategiyalari kaskadning oldini olishga xizmat qiladi; strategiya tanlovi esa universal emas, asarning diskursiv turiga qarab tabaqalashtirilishi lozim.

Tadqiqotning cheklovlari ham aniq: material uchta asar va bitta til juftligi bilan chegaralangan; kaskad darajasi sifatiy shkalada baholangan; kodlash protokol asosida, biroq bitta tadqiqotchi tomonidan bajarilgan. Keyingi bosqichda mezonlarni boshqa til juftliklarida va kengroq korpusda sinash, kodlash ishonchliligini mustaqil kodlovchi ishtirokida tekshirish ko'zda tutiladi.

XULOSA

Belgilangan vazifalar bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Tarjimadagi kaskadli nosozlik erkin metafora sifatida emas, ishchi tushuncha sifatida ta'riflandi: leksik-semantik sathdagi birlamchi nosozlikning pragmatik va funksional sathlarga o'tishi. Uni aniqlash uchun uch sathli lisoniy mezon (asliyat–tarjima juftligida birlikning holati;

PASI elementi markerlarining saqlanish darajasi; keyingi elementlarning tayanchdan mahrum bo'lishi), uchta shartning bir vaqtda bajarilishi talabi hamda tizimli va individual nosozlikni farqlash mezoni ishlab chiqildi.

2. Diagnostika uch bosqichli tartibda (PASI segmentatsiyasi, muammoli birlikning tarkibiy tahlili va uchta savol asosidagi kaskad tekshiruvi) amalga oshiriladi. Boshlanish nuqtasi va tarqalish mexanizmiga ko'ra konseptual, metaforik va pragmatik kaskad turlari hamda pragmatik kaskadning madaniy ko'rinishi ajratildi; har bir tur PASI elementlarining muayyan halqasida boshlanadi.

3. Mezonlarni uchta asar tarjimasiga tatbiq etish turli kaskad profillarini berdi: J.Klir asarida metaforik-konseptual (o'rtacha), R.T.Kiyosaki asarida pragmatik (o'rtacha-yuqori), S.R.Kovi asarida pragmatik kaskadning madaniy ko'rinishi (o'rtacha) ustun. Tahlil qilingan asarlar doirasida asarning diskursiv turi kaskad turini belgilashi, tarjima hajmining qisqarishi pragmatik kaskad darajasi bilan bog'liq ekani va A elementi markerlarining zaiflashuvi uch tarjimada takrorlanuvchi tizimli nosozlik ekani aniqlandi.

Ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, tarjimadagi tizimli yo'qotishlar zanjiri birinchi marta uch sathli lisoniy mezonlar bilan belgilangan «kaskadli nosozlik» tushunchasi orqali tavsiflandi va bu tushuncha psixologik-motivatsion matnlar tarjimasi materialida diagnostika tartibi sifatida sinovdan o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kussmaul P. Training the Translator. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – 177 p.
2. Pym A. Exploring Translation Theories. 2nd ed. – London: Routledge, 2014. – 186 p.
3. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. – London: Routledge, 2015. – 160 p.
4. Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964. – 331 p.
5. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
6. Vermeer H.J. Skopos and Commission in Translational Action // The Translation Studies Reader / L.Venuti (Ed.). – London: Routledge, 2000. – P. 221–232.

7. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992. – 304 p.
8. Chesterman A. Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory. – Amsterdam: John Benjamins, 1997. – 219 p.
9. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 1995. – 353 p.
10. Halverson S.L. 'Default' translation: A construct for cognitive translation and interpreting studies // Translation, Cognition & Behavior. – 2019. – Vol. 2, № 2. – P. 187–210.
11. Muñoz Martín R. On paradigms and cognitive translatology // Translation and Cognition / G.M.Shreve, E.Angelone (Eds.). – Amsterdam: John Benjamins, 2010. – P. 169–187.
12. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
13. Fauconnier G. Mental Spaces: Aspects of Meaning Construction in Natural Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1985. – 185 p.
14. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 231 b.
15. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 330 b.
16. Teshaboyeva Z. Tarjimashunoslikka kognitiv yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2019. – 184 b.
17. Teshaboyeva Z. Tarjima nazariyasi va amaliyotining kognitiv aspektlari. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2022. – 200 b.
18. Jumayeva D.K. Ingliz tilidagi psixologik-motivatsion asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda emotsional ohang va persuaziv usullarini yetkazish strategiyalari // Tamaddun nuri. – Toshkent, 2024. – № 4 (67). – B. 165–171.
19. Clear J. Atomic Habits: An Easy & Proven Way to Build Good Habits & Break Bad Ones. – New York: Avery, 2018. – 320 p.
20. Klir J. Atom odatlar / Tarj. S.Qosimova. – Toshkent: Nihol, 2021. – 295 b.
21. Kiyosaki R.T. Rich Dad Poor Dad: What the Rich Teach Their Kids About Money That the Poor and Middle Class Do Not! – Scottsdale: Plata Publishing, 2011. – 215 p.

22. Kiyosaki R. Boy ota, kambag'al ota / Tarj. M.Mirfayziyev. – Toshkent: Donish Chirog'i, 2019. – 205 b.
23. Covey S.R. The 7 Habits of Highly Effective People: Powerful Lessons in Personal Change. – New York: Free Press, 1989. – 381 p.
24. Kovi S.R. Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi / Tarj. O.G'ulomova. – Toshkent: Nihol, 2020. – 382 b.
25. Dobson I., Carreras B.A., Lynch V.E., Newman D.E. An initial model for complex dynamics in electric power system blackouts // Proceedings of the 34th Hawaii International Conference on System Sciences (HICSS-34). – IEEE, 2001. – P. 710–718.